



BANK KAFOLATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimov Abdugapur Karimovich

Òzbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi professori

Akramov Islomjon Ibrohimjon o'g'li

Òzbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bank kafolatlari, kafolat berish qonun qoidalari, kafolat hisobi va uni takomillashtirishda amalga oshiriladigan operatsiyalar haqida to'liq va tushunarli tarzda ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, bank daromadlari, bank xarajatlari, bank auditi, moliyaviy natijalar, auditni rejalashtirish, auditorlik tekshiruvini o'tkazish.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БАНКОВСКОГО ГАРАНТИЙНОГО СЧЕТА

Ибрагимов Абдугапур Каримович

Профессор Банковско-финансовой академия Республика Узбекистан

Акромов Исламджон Ибрагимджон угли

Магистрант Банковско-финансовой академия Республика Узбекистан

Аннотация: *В данной статье представлена полная и понятная информация о банковских гарантиях, правовых положениях гарантии, гарантийном счете и операциях, проводимых при его совершенствовании.*

Ключевые слова: *Коммерческие банки, доходы банка, расходы банка, банковский аудит, финансовые результаты, планирование аудита, аудит.*

IMPROVEMENT OF BANK GUARANTEE ACCOUNT

Ibragimov Abdugapur Karimovich

Professor of Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Akramov Islamjon Ibrahimjon ugli

Master Student of Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: *This article provides complete and understandable information about bank guarantees, the legal provisions of the guarantee, the guarantee account and the operations to improve it.*



Key words: *Commercial banks, bank income, bank expenses, bank audit, financial results, audit planning, auditing.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2012 yil 24 martdagi 10/1-son "Tijorat banklari tomonidan bank kafolatlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori Adliya vazirligida 2012 yil 15 mayda 2364 -son bilan davlat ro'yxatiga olingani haqida xabar berib, mazkur hujjatni sharhlangan. Endi uning "IV bob. Berilgan kafolatlar hisobini yuritish" deb nomlangan qismini sharhlash orqali bank kafolatlari va uni takomillashtirishni yaxshiroq tushunib olish mmkin.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari tomonidan berilgan kafolatlar hisobi "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi" (ro'yxat raqami 773-17, 2004yil 13 avgust) ga muvofiq "90993 – Kafolat va kafilliklar" hisobvarag'ida yuritilib, kafolat summasi ushbu hisobvaraqda u to'liq qoplab berilgunga qadar saqlanar edi. Kafolat ta'minoti sifatida kafil tomonidan qabul qilingan ta'minot hisobi esa "94500 – Garov sifatida ta'minlangan qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar (talablar)" hisobvarag'ida yuritilgan.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq kafolat kafil bank printsipalning talabiga ko'ra pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etgan xollarda pulni benefitsiarga to'lash bo'yicha yuzaga keladigan majburiyatdir. Yoki, kafolat ayni paytda bank balansida aks etmagan bo'lsa ham, leking bankning bo'lg'usi pul majburiyati hisoblanadi. Bunday majburiyatlar Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga ko'ra "shartli majburiyatlar" sifatida tan olinadi va ularning hisobi MHXSnini 37-standartida belgilangan talablar asosida yuritilishi lozim.

Kengroq qilib tushuntiradigan bo'lsak, bank kafolati — bank (kafil) boshqa shaxs (printsipal)ning buyurtmasiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq printsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida printsipalga beradigan yozma majburiyatdir (kafolat).

Bank xizmatlarining ushbu turi mijozning kontragentlar va boshqa banklar oldidagi majburiyatlarining bajarilishini kafolatlaydi

Kafolatlarni berishda mijoz bilan shartnoma tuziladi, unda bank kafolatini berish tartibi, uning shartlari, to'lov shartlari va tomonlarning o'zaro majburiyatlari ko'rsatib o'tiladi. Ayrim hollarda ushbu shartnoma kredit shartnomasiga o'xshab ta'minotni talab qiladi.

Bank kafolatini olish uchun mijoz bankka kredit olish uchun o'rnatilgan ro'yxatga ko'ra hujjatlarni taqdim etadi.

Kafolatlar va kafilliklar berish mijozlar bilan tuzilgan tegishli shartnomalar bilan rasmiylashtiriladi, ularda kafolatlar (kafilliklar) berishning asosiy shartlari, jumladan, vositachilik haqi summasi ham ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Kafolatlar berish hukumatlararo va xalqaro kelishuvlar bo'yicha investitsiya loyihalari bilan bog'liq bo'lgan hollar bundan mustasno.



Adabiyotlar sharhi

Rossiyalik olim Vladimir Aleksandrovich Klimenteevning "Bank kafolati tarixining ba'zi savollari" ilmiy ishidagi ma'lumotlardan foydalangan holda, keling, bank kafolatining vujudga kelish tarixi va zaruriyatiga murojaat qilaylik. Yevropa yuridik amaliyotida, ayniqsa, ingliz huquq tizimi mamlakatlarida, kafolatni asosiy majburiyat deb hisoblagan holda, "kafolat" va "kafolat xati" tushunchalarini farqlaydi. Kafolat bu asosiy shartnomaning bajarilishini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul to'lash va o'z o'rnida kafolat xati - ikkinchi darajali majburiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Yevropada bank kafolati instrument sifatida aynan ikkinchi jahon urushidan keyin majburiyatlarni ta'minlashning amaldagi odatiy usullari moliya va kredit bozori manfaatlariga xizmat qila olmaganligi sababli vujudga keldi. Huquqiy ta'sir va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar nuqtai nazaridan Yevropa huquqshunoslari bank kafolatining kafillik shartnomasi va qisman sug'urta shartnomasi bilan o'xshashligini bir necha bor ta'kidlab o'tishgan. Agar biz tafsilotlarni e'tiborsiz qoldirsak, akkreditiv bilan xam o'xshashlikni ko'rishimiz mumkin. Ko'pgina mualliflar ushbu huquqiy munosabatlarni o'rganib shunday xulosaga kelishgan. Bunday o'xshashlik tasodifiy emas.

Bank kafolati tijorat amaliyotida nisbatan yaqinda foydalana boshlangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, birinchi marta bank kafolati 1960 yillarning o'rtalarida AQSHda tijorat muomalasida paydo bo'ldi. XX asr, undan keyin 70 yillarning boshidan bankirlar uni xalqaro munosabatlarning kengayishi va xalqaro to'lovlar soni va miqdorining ko'payishi munosabati bilan tezda biznes muomalasiga kiritdilar. Bank kafolatini amaliyotga joriy qilishning yana bir zaruriyatining paydo bo'lishiga, o'sha yillardagi "neft inqirozi" turtki bo'ldi. Buning natijasida Yaqin Sharqning neft qazib oluvchi davlatlari infratuzilmani (yo'llar, dengiz portlari, aeroportlar) rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni, jamoat qurilishlarini (uyalar, shifoxonalar, aloqa)

Tijorat banklari faqat belgilangan tartibda Tashqi savdo operatsiyalari yagona elektron axborot tizimiga kiritilgan eksport kontraktlari bo'yicha va xorijiy korrespondent banklarning bank kafolatlari olingan yoki mazkur kontraktlar bo'yicha ochiq chaqirib olinmaydigan akkreditivlar summasidan oshmaydigan summada faktoring xizmatlarini ko'rsatadi. Tijorat banki eksport kontraktlari bo'yicha faktoring operatsiyasini o'tkazish chog'ida mijozning talab qilib olinguncha tranzit depozit hisobvarag'iga xorijiy valyutadagi mablag'larni, shartnomada kelishilgan diskont summasini chegirgan holda, yetkazib beruvchi tomonidan boshqa shaxs foydasiga voz kechilayotgan summada o'tkazadi.

Pul talabi huquqini berish to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan keyin mijoz bu xususda xorijiy kontragent va uning kafili (kafolatchisi) ni xabardor qilishi va ushbu to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun ularga bank - moliyaviy agentning bank rekvizitlarini ma'lum etishi shart. Agar to'lash shakli sifatida akkreditiv qabul qilinsa, bu holda mijoz bank - moliyaviy agent foydasiga akkreditivni qayta rasmiylashtirish amalini o'z vaqtida amalga oshirishi, so'ngra bankni qayta rasmiylashtirish holatidan xabardor qilishi shart.

Banklarning faktoring operatsiyalari bo'yicha hisobi va keyingi nazorati Faktoring operatsiyalari hisobi «O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi



xisobvaraqlar rejasi»ga (2004 yil 13 avgust, ro'yxat raqami 773-17) muvofiq yuritiladi. Faktoring operatsiyalari bo'yicha to'lov hujjatlari hisobini yuritish uchun bank tomonidan kutilmagan holatlar hisobvaraqlarida 90966 - «Xarid qilingan debitorlik qarzlari — Faktoring» shaxsiy hisobvarag'i ochiladi. Ushbu hisobvaraqlar debeti bo'yicha xarid qilingan debitorlik qarzlarning to'liq summasi aks ettiriladi, kredit bo'yicha esa to'lovchilar to'liq so'ndirgan xarid qilingan debitorlik qarzlari hisobdan chiqariladi.

Vakolatli banklar faqat belgilangan tartibda o'zlari hisobga qabul qilgan eksport kontraktlari bo'yicha va xorijiy korrespondent banklarning bank kafolatlari olingan yoki mazkur kontraktlar bo'yicha ochiq chaqirib olinmaydigan akkreditivlar summasidan oshmaydigan summada faktoring xizmatlarini ko'rsatadi. Vakolatli bank eksport kontraktlari bo'yicha faktoring operatsiyasini o'tkazish chog'ida mijozning talab qilib olingungacha tranzit depozit hisobvarag'iga mablag'larni, shartnomada ko'rsatilgan diskont summasini chegirgan holda, yetkazib beruvchi tomonidan beriladigan talablar summasida erkin almashtiriladigan valyutada o'tkazadi. Mijozning tranzit hisobvarag'iga hisoblab yozilgan valyuta mablag'laridan majburiy sotishni mijoz to'liq hajmda, diskont summasini chegirmasdan amalga oshiradi.

Dunyo amaliyotida faktoring xizmatlarining narxi 2 elementga bog'liq:

1) Xizmat ko'rsatish uchun haq. U o'rtacha schot-faktura narxining 0,5-3,0%ini tashkil qiladi, ammo ba'zilar 5% gacha ham boradi.

2) Berilgan kredit mablag'lari uchun haq. Uning miqdori mijozning faktoring bo'limidan pul olishdan hamda to'lovchidan pul kelib tushishigacha bo'lgan vaqt ichidagi mijozning kundalik debet saldosi miqdoriga qarab belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarida bank kafolatlarini qo'llash jarayonida foydalanilgan usullarning nazariy asoslari o'rganildi, mavzuga bog'liq ko'plab ilmiy nashrlar talqin qilindi, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda ilmiy mushohada, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

Mavzuni o'rganishda pozitivistik va interpretivistik tadqiqotlardan foydalanildi. Pozitivistik tadqiqotda o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik, ya'ni tijorat banklarida bank kafolatlari jahon banklari kafolatlaridan qay tarzda bog'liqligi o'rganildi. Tijorat banklarida bank kafolatlari tahlil qilindi. Xorij tajribasini o'rganish maqsadida adabiyotlar, internet saytlaridan axborot va ma'lumotlar jamlandi.

Faktoring xizmati mijozga shartnoma asosida ko'rsatiladi. Shartnomada yetkazib beruvchiga regress huquqi berilgani yoki yo'qligi ko'rsatiladi. Regress huquqiga ega bo'lgan shartnomada bank yetkazib beruvchiga har qanday to'lanmaslik qarzidorlik majburiyatini sotish huquqiga ega va aksincha agar majburiyatlar noqonuniy deb topilmasa regress huquqiga ega bo'lmagan shartnomada bank to'lanmaslik riskini o'z bo'yniga oladi. Shuningdek, Jahon amaliyotida faktoring operatsiyalari bo'yicha chegaraviy summalarni belgilashning uch xil usuli mavjud:

1) Kreditlash limitini ajratish. Faktoring xizmati shartnomasida, agar qarzidor summasi belgilangan limitdan oshib ketsa, bank yetkazib beruvchiga barcha qo'shimcha schotlarni qaytarib berish huquqiga ega, to'lovchining to'lovga qobiliyatsizligida ega barcha



uning qarzidorlik to'lovlari bankning yetkazib beruvchiga to'lagan summani undirguncha qadar bankka kelib tushadi.

2) Har oylik yuk jo'natish limitini jo'natish. Yetkazib beruvchi mijoz qarzining miqdoridan qat'iy nazar, shubhali qarzlardan sug'urtalanadi. Limit hafta, oy, choraklarda belgilanishi mumkin.

3) Alohida shartnomalar bo'yicha sug'urta. Bu usul bir mijozga bir necha tovar yetkazib berish emas, balki alohida xolatlarda, katta summalarda shartnomalar imzolanganida qo'llaniladi. Ma'lum holatlarda esa bularning kombinatsiyasi ham qo'llanilishi mumkin.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Keling bank kafolati yuzasidan bir qator yondoshuvlarni ko'rib chiqaylik.

Ilmiy adabiyotlarda bank kafolati va sug'urta o'rtasidagi munosabat kamroq, lekin bank kafolati va kredit o'rtasidagi munosabatlar keng ko'lamda o'rganilgan. Bank kafolatlari va sug'urtalashning qiyosiy tahliliga e'tiborning kuchayishi ushbu xizmatlar turlarining amalda ko'pincha bir-biri bilan raqobatlashishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, ushbu raqobat ko'pincha qonunchilik darajasida mustahkamlangan.

Bank kafolati va kreditni taqqoslash, qoida tariqasida, banklarda kredit va kafolat olish uchun arizalarni ko'rib chiqishning amaldagi tartibini tavsiflashga to'g'ri keladi.

Kuban davlat Universiteti huquq fakulteti o'qituvchisi D.A.Palin yuqoridagi mahsulotlarning nisbatlarini batafsilroq ko'rib chiqqan.

Professor P.Gudning fikricha, huquqiy nuqtai nazardan zaxira akkreditiv talab bo'yicha kafolat berishdan boshqa narsa emas, faqat boshqa nomga ega. Shu bilan birga, kafolatning amal qilish muddati prinsipal va kafil o'rtasidagi kelishuvga bog'liq emasligi haqida fikrlar bildirilgan. Bu qarash tarafdorlari, xususan, B. M. Gongalo va A. M. Erdelevskiylardir. "Prinsipal va kafil o'rtasida yozma kelishuvning yo'qligi kafilning benefitsiar oldidagi kafolat majburiyatlarini bekor qilmaydi".

Boshqa olimlar esa o'z qarashlarida kafolatning xavfsizlik xususiyatini hisobga olishni zarur deb hisoblaydilar. Shunday qilib, "...kafilning majburiyati asosiy majburiyatdan mutlaqo mustaqil bo'lishi mumkin emas...", degan fikr bildirilgan. Chunki kafolat bo'yicha pul miqdorini to'lash talabida benefitsiar asosiy majburiyatning nima uchun bajarilmaganligini ko'rsatishi kerak. Bu esa asosiy majburiyatdan iborat va shuning uchun kafil faqat asosiy majburiyatni bajarmagan taqdirdagina kafolat bo'yicha to'lovni amalga oshiradi.

Iqtisod fanlari doktori, professor Sharbat Abdullaeva o'zining "Bank ishi" nomli kitobida "Bank kafolati va uning kreditlashdagi o'rni" ga aloxida urg'u berib, "Bank-kreditor, qarz oluvchi va garant o'rtasidagi munosabatlarda eng muhim jihat – bu bank kafolatining kuchga kirish vaqtini aniqlash hisoblanadi. Odatda, bank kafolati berilganiga qarz oluvchi garantga bank xizmati to'laydi. Bu omil amaliyotda kafolatning kuchga kirishida ro'l o'ynashi mumkin.

Xalqaro huquqda moliyaviy va tijorat faoliyatini amalga oshirishda har doim tomonlardan biri ikkinchi tomon oldidagi majburiyatlarini bajarmaslik yoki bajarishdan bosh tortish xavfi mavjud bo'ladi. Ushbu xavflar xalqaro darajada ham, milliy darajada ham



mavjud. Barcha mamlakatlarda moliyaviy yo‘qotishlardan himoya qilish uchun tegishli himoya sifatida bank maxsulotlaridan biri bank kafolati qo‘llaniladi. Bunday kafolat kopxonalarining kredit layoqatini taxlil qilish usuli bo‘lib, bitimga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga bu jarayonni va keng miqyosda savdoni sezilarli darajada rag‘batlantiradi va natijada milliy bozorda va xalqaro bozorda tadbirkorlik faoliyatini pivojlantiradi. Bank kafolatlarini tartibga soluvchi qoidalarni amalga oshirish ko‘plab ijobiy natijalarga ega.


Bularga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- joriy va potensial yetkazib beruvchilarga ularning moliyaviy majburiyatlarini bajara olishlari uchun kafolatlar berish imkonini beradi;
- banklar yirik moliya institutlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, moliyaviy barqarorlikni shakllantiradi;
- xalqaro miqyosda foydalanish mumkin bo‘ladi;
- korxonalarining moliyaviy barqarorligi va kreditga layoqatliligini baholashning ishonchli vositasi sifatida ishlaydi;
- bitim o‘z vaqtida va kelishilgan narxda bajarilishini ta‘minlash orqali har ikki tomon uchun xavfni kamaytiradi.

Bank kafolati mahalliy amaliyotda nisbatan yaqinda mavjud bo‘lganligi sababli, hozirgi vaqtda u ichki iqtisodiy muomalada to‘g‘ri taqsimlanmagan. Biroq, ushbu iqtisodiy va huquqiy vositaga bo‘lgan ehtiyoj ob‘ektiv ravishda mavjud bo‘lib, u mamlakatda asta-sekin iqtisodiy o‘shish bilan bog‘liq rivojlanishi kerak.

Ma‘lumotdan ko‘rinib turibdiki, 2023 yil 1 yanvar xolatiga jami tijorat banklari bank kafolati portfeli 10,3 trln.so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan 21,5% ga o‘sgan. Pandemiya davrida barcha soxalarda bo‘lgani kabi, bu ko‘rsatkich xam o‘tgan yillarga nisbatan kamaygan. 01.01.2022 yil xolatiga bank kafolati portfeli qoldig‘i 8,5 trl.so‘m bo‘lib, 01.01.2021 yilga nisbatan 1,8 trln.so‘mga kamaygan. Oxirgi besh yilda bank kafolati portfeli 60% ga ortgan. Bu bank tizimida yangi xizmat turlarini ko‘payishi, tijorat banklari tomonidan bozorga, mijozga mos va jozibador bank maxsulotlarini taklif qilayotganidan dalolat desa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Keling, bu o‘zgarishlarni quyidagi dinamikadan bilib olaylik.

1-jadval





Hozirgi kunda komission daromadlarning salmog'i oshishi kuzatilmoqda, chunki ushbu operatsiyalardan olinayotgan daromadlar barqaror daromad manbaiga ega. Shuningdek, ushbu operatsiyalarning risklilik darajasi juda past (faqat kafolat berishdan tashqari). Moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlarga: qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasi, qimmatbaho metallar, moliyaviy derevativlar (fyucherslar, opsionlar, forvard bitimlari) va boshqalar oldi-sotdisi bo'yicha daromadlar kiradi. Bu operatsiyalar mohiyati jihatidan savdo operatsiyalari hisoblanadi va «resurslarni arzonroq olib – qimmatroq sotish» tamoyiliga asoslanadi. Ushbu operatsiyalar spekulyativ xarakterga ega bo'lganligi sababli va risklilik darajasi yuqori ekanligidan ayrim davlatlarda yuqoridagi operatsiyalarni amalga oshirish taqiqlangan, masalan, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi.

Xulosa va takliflar

Ma'lumki, bankka kafillik xizmatlarini ko'rsatganlik uchun printsipal tomonidan vositachilik haqi to'lanishi mumkin. Vositachilik xizmat haqi kafolat summasi “90993 – Kafolat va kafilliklar” hisobvarag'iga kirim qilingan kun yoki undan oldin to'lab berilishi shart.

Kafillik xizmatlarini ko'rsatganlik uchun haq to'lash printsipal tomonidan oldindan bankning “22896 – Muddati uzaytirilgan boshqa daromadlar” hisobvarag'iga o'tkazib beriladi. Ushbu hisobvaraqdan kafillik xizmatlarini ko'rsatganlik uchun haq summasini daromadga o'tkazish “Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi tartibi to'g'risida nizom”da (ro'yxat raqami 1435, 2004 yil 17 dekabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 yil., 50-son, 511-modda) belgilangan tartibda bank daromadiga o'tkazib boriladi.

Shunday qilib, banklar an'anaviy tarzda egallab turgan tarmoqlarida raqobatbardosh pozitsiyalarini mustahkamlash uchun istiqbolli raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion mahsulot va xizmatlar, shakl va usullarni izlashlari zarur. Bunday texnologiyalar raqamli texnologiyalar hisoblanadi. An'anaviy bank kafolati vositalarini innovatsiya qilish ijobiy bozor imkoniyatlari va istiqbollarni ochib beradi. Kelajakda bank kafolatlarining ilg'or texnologiyalar formatiga o'tkazilishi mijozlar uchun bank kafolati mavjudligining oshishiga, uning narxining pasayishiga, shuningdek, banklar uchun asosiy raqobatdosh ustunlik bo'lgan rasmiylashtirish muddatining qisqarishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCE:

1. Ibragimov Abdugapur Karimovich, Umarov Zafar Abdusamatovich, Hotamov Komil Rabbimovich, Rizayev Nurbek Kadirovich, Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik Toshkent 2020
2. «Tijorat banklari tomonidan bank kafolatlarini berish tartibi to'g'risidagi nizom» ning “IV bob. Berilgan kafolatlar hisobini yuritish” yuzasidan sharh.
3. Iqtisod fanlari doktori, professor Sharbat Abdullaevaning “Bank ishi” nomli kitobi.
4. Kuban davlat universiteti huquq fakulteti o'qituvchisi Palin D.A. ning “Банковская гарантия как финансовый продукт: сравнительный анализ” maqolasi, 2012 - yil.
5. [Bank kafolatlari \(ipotekabank.uz\)](http://Bankkafolatlari(ipotekabank.uz))
6. <https://cbu.uz/uz/documents/3332/37546/>